Ravshanova Gulnoza Burxonovna, Turdiboyeva Umida Ravshan qizi, Norjigitova Rohila Abduvoid qizi	
Ingliz, o'zbek va rus tillari foydalanuvchilari uchun lug'atlar yaratishning lingvistik va amaliy asoslari	565
Raxmonova Sardora Muminjonovna	
Jismoniy tarbiya darslarini yangicha pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari	569
Ro'zmetov Rasul Tangirberganovich	
Sutemizuvchilarning kelib chiqishi va xilma-xilligi	573
Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Sattorova Sanobar Boboqul qizi, Salimova Shahrizoda Ikromjon qizi	
Raqamli muhitda voyaga etayotgan o'spirinlarda empatiya va ijtimoiy-emotsional rivojlanishning neyropedagogik xususiyatlari	578
Shamsiddinov G'iyosjon Husniddin o'g'li	
Bo'lajak muhandislarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda dasturlashtirilgan ta'lim vositalarining o'rni	583
Sharipova Nodira Ilxom qizi	
Digital Educational Technologies in Improving the Quality of Teaching: Methods and Practical Implementation	588
Tashpulatova Nafisa Bakhtiyarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ishonchni rivojlantirishda inklyuziv usullardan foydalanish	591
To'laboyeva Irodaxon Maxammadali qizi	
SRDM modeli orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida STEAM kompetensiyalari va Computational Thinking ko'nikmalarini shakllantirish	595
Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi	
Umumta'lim maktablarida fan to'garaklari faoliyatini tashkil etishning pedagogik shartlari	600
Toshtemirova Dilnoza Abdug'ani qizi	
Development of an Integrated Learning Module Based on Digital Technologies in the Educational Process	604
Umirov Ilkhom Iskandar ugli	
Muskul-skelet tizimi nuqsonli o'quvchilarning nozologik guruhlariga differensial yondashuv asosida adaptiv sportga yo'naltirish	608
Uraimov Sanjar Ruzimatovich, Ubaydullayeva Dilnoza Muhammad qizi	
Boshlang'ich ta'limda alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni o'qitishning bugungi holati va muammolari tahlili	612
Uroqova Yorqin qizi	
Inklyuziv ta'lim muhiti asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiya darslarida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	615
Xamidova Zarina Iskandar qizi	
Qushlar migratsiyasi va uning ekologik sabablari	619
Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Raximova Dilfuza Ilyos qizi, Saburova Sarvinoz Erkabay qizi	
Imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etishning nazariy va amaliy asoslari	623
Xasanova Nilufar Raxmatovna	
Raqamli avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar va ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyati uyg'unligi	628
Xaydarova Xilola Raximberdiyevna	
Разработка алгоритмов для визуализации и анализа решения задач линейного программирования	631
Буронова Муниса Баходировна, Хакимов Дониёр Бахтиёр Угли	
Ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv tushunchasi va iqtisodiy mazmuni	637
Mannanova Maftuna Fazliddin qizi	
Koreya ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari va uning pedagogik mohiyati	641
Adamatov Anvar Ablaqulovich	
Bo'lajak pedagoglarning raqamli didaktik kompetensiyasini rivojlantirish: muammo va yechimlar	645
Uskanov Kaxramon Xalikulovich	
Matematika fanini o'qitishda onlayn platformalardan foydalanish	648
Mirzayeva Shahlo, Yorqulova Mashhura, Boboqulova Durdona	

MUSKUL-SKELET TIZIMI NUQSONLI O'QUVCHILARNING NOZOLOGIK GURUHLARIGA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA ADAPTIV SPORTGA YO'NALTIRISH

Uraimov Sanjar Ruzimatovich

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ubaydullayeva Dilnoza Muhammad qizi

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada muskul-skelet tizimi nuqsonli maktab o'quvchilarini adaptiv sportga yo'naltirishda noozologik guruhlarga differensial yondashuvning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi 16-, 18-, 19-, 32-maktablarda o'quvchilarning ota-onalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomma natijalari asosida sport turlarini tanlash va tibbiy-pedagogik kuzatuvning noozologik xususiyatlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: adaptiv sport, differensial yondashuv, noozologik guruh, tibbiy-pedagogik kuzatuv, tibbiy reabilitatsiya, maktab yoshi.

Abstract: The article substantiates the scientific and methodological foundations of a differential approach to the nosological groups of schoolchildren with musculoskeletal disorders when directing them to adaptive sports. Based on the results of a survey conducted among parents of students from schools No. 16, 18, 19, and 32 in the Altariq district of the Fergana region, the nosological features of selecting sports and medical-pedagogical supervision were identified.

Key words: adaptive sport, differential approach, nosological group, medical-pedagogical supervision, medical rehabilitation, school age.

Аннотация: В статье обосновываются научно-методические основы дифференцированного подхода к нозологическим группам учащихся с нарушениями опорно-двигательного аппарата при направлении их в адаптивный спорт. На основе результатов анкетирования родителей учащихся школ №№ 16, 18, 19, 32 Алтыарыкского района Ферганской области определены нозологические особенности выбора видов спорта и медико-педагогического наблюдения.

Ключевые слова: адаптивный спорт, дифференциальный подход, нозологическая группа, медико-педагогическое наблюдение, медицинская реабилитация, школьный возраст.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda tayanch-harakat apparati (THA) patologiyalari bilan tug'ilgan bolalar soni muttasil ortib bormoqda. Bu esa ularni jismoniy faollikka va, xususan, sportga jalb qilishning samarali tizimini yaratishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy hayotga integratsiya qilish, jismoniy reabilitatsiya qilish va ularni adaptiv sportga jalb etish sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda ^[8].

2024-yil 8-noyabrdagi PQ-389-son¹ "Nogironligi bo'lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror bu boradagi eng muhim huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Qarorda adaptiv sport turlari assotsiatsiyasini tashkil etish, uning hududiy bo'linmalarini kengaytirish va adaptiv sportni rivojlantirish bo'yicha moddiy-texnik bazani mustahkamlash kabi aniq vazifalar belgilangan ^{[1], [3], [5]}.

Shu bilan birga, qarorda adaptiv jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda malaka oshirish kurslarini tizimli yo'lga qo'yish masalalari ham o'z ifodasini topgan ^[10]. Biroq,

1 <https://lex.uz/uz/docs/-7215989>



amaliyot shuni ko'rsatadiki, maktab yoshidagi bunday bolalarni adaptiv sportga jalb qilishda ularning sog'lig'idagi nuqsonlar turi va darajasi, ya'ni nozologik xususiyatlari yetarlicha e'tiborga olinmaydi. Ayniqsa, muskul-skelet tizimi nuqsonli o'quvchilar turli nozologik guruhlariga mansub bo'lib, ularning har biri uchun kontrindikatsiyalar va ruxsat etilgan jismoniy yuklamalar turlicha. Shuning uchun differensial, ya'ni farqlashtirilgan yondashuvga asoslangan adaptiv sportga yo'naltirish mexanizmini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda adaptiv jismoniy tarbiya va adaptiv sportning nazariy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, bir qator tadqiqotlarda adaptiv jismoniy tarbiyaning nogironligi bo'lgan shaxslar salomatligini mustahkamlash hamda ularning jismoniy va ijtimoiy rehabilitatsiyasini ta'minlashdagi o'rni yoritilgan [7]. Boshqa mualliflar esa L.P. Matveyev, I.M. Byxovskaya va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari asosida jismoniy madaniyat hamda adaptiv jismoniy tarbiya tushunchalarining falsafiy, pedagogik va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilganlar [9]. Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan sportchilar bilan olib borilgan tadqiqotlar, asosan, yuqori malakali ulotiruvchilar misolida mavjud bo'lib, unda mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish va sport nozologiyasiga bog'liq holda samarali vositalarni saralash masalalari ko'rib chiqilgan. Yana boshqa manbalarda esa nogiron bolalarni ijtimoiy hayotga jalb etishda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, jumladan, adaptiv sport va raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari tahlil qilingan [9].

Paralimpiya sporti istiqbollariga bag'ishlangan maqolalarda esa O'zbekistonda bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va normativ-huquqiy bazaning takomillashayotgani ta'kidlangan [10]. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda muskul-skelet tizimi nuqsonli maktab yoshidagi o'quvchilarning nozologik guruhlarini differensial yondashuv asosida adaptiv sportga yo'naltirishga oid maxsus metodika deyarli ishlab chiqilmagan. Aynan shu bo'shliq ushbu tadqiqotning ilmiy muammosini tashkil etadi. Xorijiy ilmiy maktablarda adaptiv faoliyatning nazariy va amaliy asoslari yanada kengroq o'rganilgan. Jumladan, bir qator manbalarda adaptiv jismoniy faoliyat interdisiplinar soha sifatida ta'riflanib, unda jismoniy faoliyatdagi cheklanishlar, darajalar va ishtirok etish to'siqlari tahlil qilinadi.

Differensial vositalardan foydalanish hamda harakatni o'rganishning chiziqli, nochiziqli va differensial usullari batafsil ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning harakat o'zgaruvchanligini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslangan. Shuningdek, sport mashg'ulotlarini individuallashtirishning zamonaviy konsepsiyalari va texnologiyalari yoritilgan. Eshitish nuqsoni bo'lgan sportchilar misolida mashg'ulot vositalari va usullarini patologiya darajasiga qarab differensial yondashuv asosida qo'llash samaradorligi eksperimental jihatdan isbotlangan [8]. Xalqaro tajribaning yana bir muhim qirrasini bu sport turini tanlashda nozologik guruhlarining funksional imkoniyatlariga maksimal darajada moslashtirishdir. Masalan, Rossiya Federatsiyasida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun o'q otish sporti eng ommabop va integratsiyaga qulay sport turlaridan biri sifatida tavsiya etiladi. Ammo yuqoridagi tadqiqotlarning aksariyati kattalar va yuqori malakali sportchilarga qaratilgan bo'lib, maktab yoshidagi muskul-skelet tizimi nuqsonli bolalarning ota-onalari bilan to'g'ridan to'g'ri so'rovnomasida differensial yondashuvni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar kam.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi muskul-skelet tizimi nuqsonli o'quvchilarning nozologik guruhlariga differensial yondashuv asosida adaptiv sportga yo'naltirish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholashdan iborat.

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi: Nazariy tahlil – o'zbek va xorijiy adabiyotlarni o'rganish, taqqoslash hamda umumlashtirish. So'rovnomasida – Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi 16-, 18-, 19- va 32-umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan, tayanch-harakat apparati buzilishlari aniqlangan 33 nafar o'quvchining ota-onalari o'rtasida anonim tarzda o'tkazildi. So'rovnomasida 15 savoldan iborat bo'lib, unda bolaning asosiy tashxisi, jismoniy faollik darajasi, shifokor tavsiyalari, sportga bo'lgan qiziqishi va ota-onalarning informatsion xabardorlik darajasi o'rganildi. Statistik tahlil – to'plangan ma'lumotlarning chastotali taqsimoti hisoblandi va guruhlar o'rtasidagi farqlar χ^2 (xi-kvadrat) mezonini yordamida baholandi.

O'quvchilar nozologik guruhlariga quyidagicha ajratildi:

- 1-guruh – miya falaji (serebral paralich) bo'lgan o'quvchilar (n = 11).
- 2-guruh – amputatsiya yoki qo'l-oyoq nuqsonlari bo'lgan o'quvchilar (n = 9).
- 3-guruh – orqa miya shikastlanishi oqibatlarini, ya'ni umurtqa pog'onasi va orqa miya shikastlanishi bo'lgan o'quvchilar (n = 8).
- 4-guruh – tug'ma va orttirilgan muskul-skelet tizimi deformatsiyalari bo'lgan o'quvchilar (n = 5).

TAHLIL VA NATIJALAR

So'rovnoma natijalari tahlili

O'tkazilgan so'rovnomada ota-onalarning 70 foizdan ortig'i o'z farzandlarining adaptiv sport bilan shug'ullanishiga ijobiy munosabat bildirgan. Biroq, ularning atigi 38 foizi farzandining nozologik holatiga mos keladigan sport turi haqida aniq ma'lumotga ega ekanligini ko'rsatdi. Ayni paytda maktablarda adaptiv sport bo'yicha atigi 4 nafar mutaxassis (tayanch-harakat apparati buzilishlari bo'yicha) faoliyat yuritib kelmoqda, bu esa mavjud ehtiyojni qondirish uchun yetarli emas.

So'rovnomada qayd etilgan asosiy muammolar quyidagilar:

- ota-onalarning adaptiv sport turlari va ularning nozologik xususiyatlarga mosligi haqida yetarlicha xabardor emasligi;
- maktablarda zarur moddiy-texnik baza (maxsus aravachalar, protezlar, simulyatorlar) va moslashtirilgan sport maydonchalarining yo'qligi;
- tibbiyot xodimlari (shifokor, fizioterapevt) va pedagog kadrlar (adaptiv jismoniy tarbiya o'qituvchilari) o'rtasida hamkorlik mexanizmining yetarli darajada shakllantirilmaganligi.

Natijalarning statistik tahlili shuni ko'rsatdiki, nozologik guruhlar o'rtasida adaptiv sportga qiziqish motivatsiyasida sezilarli farqlar mavjud ($p < 0,05$). Xususan, miya falaji va orqa miya shikastlanishi oqibatlarini bo'lgan o'quvchilar suzish hamda stol tennisiga ko'proq qiziqish bildirgan bo'lsa, amputatsiya guruhi vakillari yengil atletika va aravachali basketbolga ko'proq qiziqish bildirgan.

Qo'llaniladigan metodikalarning mazmuni

TAYANCH HARAKAT APPARATI NUQSONLI MAKTAB O'QUVCHILARI UCHUN ADAPTIV SPORTGA DIFFERENSIAL YONDASHUV METODIKASI

QO'LLANILADIGAN METODIKALARNING MAZMUNI		1-JADVAL. NOZOLOGIK GURUHLAR BO'YICHA DIFFERENSIAL ADAPTIV SPORT YO'NALISHLARI			
<p>Tadqiqot natijalari asosida har bir nozologik guruh uchun sport turlari va mashg'ulot yuklamalarini differensial tanlash bo'yicha metodik qoidalar ishlab chiqildi. Ushbu metodika differensial yondashuvning quyidagi asosiy tamoyillariga tayanadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> NOZOLOGIK TAMOYIL Har bir tashxis guruhi uchun ruxsat etilgan sport turlari belgilab beriladi. FUNKSIONAL TAMOYIL O'quvchining saqlanib qolgan funksiyalari va kompensator mexanizmlariga tayaniladi. PEDAGOGIK TAMOYIL Mashg'ulotlarni tashkil etish usullari (yakka, guruh, masofaviy) individual xususiyatlarga moslashtiriladi. YOSH TAMOYILI Maktab yoshining psixofizik rivojlanish davrlari inobatga olinadi. <p>Har bir nozologik guruh bo'yicha tavsiya etilgan sport turlari, kontrendikatsiyalar va mashg'ulotlarning asosiy yo'nalishlari 1-jadvalda keltirilgan.</p>		NOZOLOGIK GURUH	TAVSIYA ETILGAN SPORT TURLARI	ASOSIY KONTRENDIKATSİYALAR	MASHG'ULOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI
Miya falaji	Suzish Yengil atletika (aravachada) Stol tennisi Ot sporti (terapiya)	Balansni qiyinlashtiruvchi mashqlar Zo'riqish bilan takrorlanadigan egilishlar	Muvozanatni tiklash Mushaklar tonusini normallashtirish Nozik motorika		
Amputatsiya	Suzish Yengil atletika (protez bilan) Og'ir atletika Aravachali basketbol	Protez bilan mos kelmaydigan tayanch mashqlari Qo'pol simmetriya buzilishi	Simmetrik mushaklar kuchini rivojlantirish Protezga adaptatsiya Umumiy chidamlilik		
Orqa miya shikastlanishi	Suzish Aravachali regbi/tennis Ot sporti	O'tiradigan holatda og'ir dinamik yuklar Umurtqa pog'onasiga zarbali takrorlanishlar	Nafas va kardioreabilitatsiya Qo'l kuchini rivojlantirish Aravachani boshqarish		
Tug'ma/orttirilgan deformatsiyalar	Suzish Yengil atletika (nazorat ostida) Badiiy gimnastika (yengil) Velosport (maxsus moslamada)	Zo'riqish bilan birga keluvchi og'ir yuklamalar Deformatsiyalangan bo'g'inlar ustidan qaytariladigan usullar	Deformatsiyalar dinamikasini kuzatish Mushaklar korsetini mustahkamlash Shifokor bilan doimiy aloqa		

METODIKANI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI				METODIKANING AMALIY SINOV NATIJALARI		XULOSA
1 TIBBIY TASHXIS VA NOZOLOGIK GURUHNI ANIQLASH (shifokor, psixolog va adaptiv sport mutaxassisi ishtirokida).	2 OTA-ONA VA MAKTAB VAKILLARI BILAN INFORMATSION SUHBAT VA RUXSATNOMA OLISH	3 SPORT TURINI DIFFERENSIAL TANLASH VA INDIVIDUAL MASHG'ULOT DASTURINI TUZISH	4 TIBBIY-PEDAGOGIK KUZATUV ASOSIDA DASTURGA TUZATISHLAR KIRITISH	Ushbu metodika Oltiariq tumani 4 ta maktabda 4 oy mobaynida sinov tariqasida qo'llanildi (n=26).	Dastlabki natijalar: 35% jismoniy faollik darajasi o'ttacha oshgan 24 nafar (92%) mashg'ulotlarni muntazam davom ettirish istagini bildirgan.	Tekshiruv guruhi bilan solishtirganda: Differensial yondashuv asosida shug'ullangan o'quvchilarda reabilitatsiya jarayoniga motivatsiya va qoniqish darajasi sezilarli darajada yuqori bo'lgan ($p < 0,05$).
<p>INTERFAOL VA DIFFERENSIAL YONDASHUV NATIJASI</p> <ul style="list-style-type: none"> Jismoniy sifatlar rivojlanadi: kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiyluvchanlik Kognitiv ko'nikmalar rivojlanadi: mustaqil fikrlash, muammo yechish, tahlil Ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi: muloqot, hamkorlik, jamoada ishlash Sog'liq va hayot sifati yaxshilanadi, sportga bo'lgan qiziqishi barqarorlashadi 				<p>1 Tayanch harakat apparati nuqsonli maktab o'quvchilarini adaptiv sportga jalb qilishda nozologik guruhlarining xususiyatlarini differensial hisobga olish metodikasi ishlab chiqildi va uning dastlabki samaradorligi tajribada asoslandi.</p> <p>2 So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning aksariyati adaptiv sportga ijobiy munosabatda, ammo ularning xabardorlik darajasi past va maktablarda zarur mutaxassislar hamda moddiy-texnika bazasi yetarli emas.</p> <p>3 Differensial yondashuv asosida sport turini tanlash va mashg'ulot dasturini tuzish reabilitatsiya samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning sportga doimiy qiziqishini ta'minlaydi.</p>		

1-rasm: Muskul-skelet tizimi nuqsonli maktab o'quvchilarini adaptiv sportga yo'naltirishda differensial yondashuvning ilmiy-metodik asoslari

Tadqiqot natijalari asosida har bir nozologik guruh uchun sport turlari va mashg'ulot yuklamalarini differensial tanlash bo'yicha metodik qoidalar ishlab chiqildi. Ushbu metodika differensial yondashuvning quyidagi asosiy tamoyillariga tayanadi:



1. **Nozologik tamoyil** – har bir tashxis guruhi uchun ruxsat etilgan sport turlari belgilab beriladi.
2. **Funksional tamoyil** – o'quvchining saqlanib qolgan funksiyalari va kompensator mexanizmlariga tayaniladi.
3. **Pedagogik tamoyil** – mashg'ulotlarni tashkil etish usullari (yakka, guruhli, masofaviy) individual xususiyatlarga moslashtiriladi.
4. **Yosh tamoyili** – maktab yoshining psixofizik rivojlanish davrlari inobatga olinadi.

Har bir nozologik guruh bo'yicha tavsiya etilgan sport turlari, kontrindikatsiyalar va mashg'ulotlarning asosiy yo'nalishlari 1-rasmda keltirilgan.

Ishlab chiqilgan metodika quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Tibbiy tashxis va nozologik guruhni aniqlash (shifokor, psixolog va adaptiv sport mutaxassisi ishtirokida).
2. Ota-ona va maktab vakillari bilan informatsion suhbat o'tkazish hamda ruxsatnoma olish.
3. Sport turini differensial tanlash va individual mashg'ulot dasturini tuzish.
4. Tibbiy-pedagogik kuzatuv asosida dasturga tuzatishlar kiritish.

Ushbu metodika Oltiariq tumanidagi 4 ta maktabda 4 oy mobaynida sinov tariqasida qo'llanildi ($n = 26$).

Dastlabki natijalar shuni ko'rsatdiki, metodika qo'llanilgan o'quvchilarda jismoniy faollik darajasi o'rtacha 35 foizga oshgan va ularning 24 nafari (92 foiz) adaptiv sport mashg'ulotlarini muntazam davom ettirish istagini bildirgan. Tekshiruv guruhi ($n = 7$, an'anaviy usulda shug'ullanganlar) bilan solishtirganda, differensial yondashuv asosida shug'ullangan o'quvchilarda reabilitatsiya jarayoniga motivatsiya va qoniqish darajasi sezilarli darajada yuqori bo'lgan ($p < 0,05$).

XULOSA

Tayanch-harakat apparati nuqsonli maktab o'quvchilarini adaptiv sportga jalb qilishda nozologik guruhlarning xususiyatlarini differensial hisobga olish metodikasi ishlab chiqildi va uning dastlabki samaradorligi tajriba asosida tasdiqlandi. So'rovnomada natijalari shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning aksariyati adaptiv sportga ijobiy munosabatda, biroq ularning xabardorlik darajasi past hamda maktablarda zarur mutaxassislar va moddiy-texnik baza yetarli emas. Differensial yondashuv asosida sport turini tanlash va mashg'ulot dasturini tuzish reabilitatsiya samaradorligini oshiradi hamda o'quvchilarning sportga doimiy qiziqishini ta'minlaydi.

Maktablarda adaptiv sport bo'yicha tayanch-harakat apparati buzilishlariga ixtisoslashgan kamida bittadan mutaxassis (shifokor yoki pedagog) shtatini joriy etish tavsiya etiladi. O'zbekiston adaptiv sport turlari assotsiatsiyasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan ota-onalar uchun nozologik guruhlarga mos sport turlari bo'yicha maxsus onlayn va oflayn informatsion platforma tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani kabi chekka hududlarda adaptiv sport uchun moddiy-texnik bazani (aravachalar, protezlar, simulyatorlar, moslashtirilgan sport maydonchalari) yaratish PQ-389-sonli qarorning 2-ilovasida nazarda tutilgan chora-tadbirlar dasturiga kiritilishi lozim. Maktab tibbiyot xodimlari va jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'rtasida nozologik guruhlarni aniqlash hamda differensial yondashuvni qo'llash bo'yicha qo'shma treninglar tashkil etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-noyabrdagi PQ-389-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. – <https://lex.uz/uz/docs/-7215989>
2. Saribayev S. O'zbekistonda zamonaviy paralimpiya sportini rivojlantirish istiqbollari // Sport-science.uz, 2024. – №1. – B. 5–9.
3. Abdiyev Sh.A. Tayanch-harakat apparatida nuqsonli bo'lgan yuqori malakali uloqtiruvchilarning mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish. – CyberLeninka, 2024. – B. 1–26.
4. Matveyev L.P., Byxovskaya I.M. va boshqalar. Adaptiv jismoniy tarbiyaning asosiy tushunchalari va atamallari // Inlibrary.uz, 2025. – B. 15–22.
5. Sherzod T., Eliyeva F. Yosh triatlonchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini differensial baholash // O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning zamonaviy muammolari, 2023. – B. 45–50.
6. Pulatova P.M. Oligofrenopedagogika. – Toshkent: Ilm Ziyozakat, 2023. – 240 b.
7. Po'latov Sh.A., Ahmedova N.I. Sport o'yinlari elementlarini o'rganish (tennis). – Toshkent: JTSU, 2022. – 120 b.
8. Valiyeva N.Y. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: JTSU, 2022. – 180 b.
9. Zobkov D. Differensial yondashuv asosida shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (eshitish nuqsonli bo'lgan sportchilar misolida) // Teoriya i praktika fizicheskoy kultury, 2024. – №3. – B. 35–40.
10. Winnick J.P., Porretta D.L. Adapted Physical Education and Sport. – 7th ed. – Human Kinetics, 2022. – 640 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.